

DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN YAYLOV YERLARIDAN FOYDALANISHNI
QAYTA TASHKIL ETISH

Xudoyberdiyev Feruz Shamshodovich

“Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrası dotsenti, texnika fanlari falsafa doktori xudoyberdiyev89@list.ru

Nazarov Ibrohim Hasan o’g’li

“Yer kadastrı va yerdan foydalanish” talabasi

Mirzomurotov Maksudjon Farxod o’g’li

“Yer kadastrı va yerdan foydalanish” talabasi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: *Buxoro viloyatida degradatsiyaga uchragan yaylovlar tuproqlari unumdorligini oshirish, tabiiy yaylovlar o’simlik dunyosi fauna va florasini saqlash va ekologik barqarorligini tiklash hamda yaylovlardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.*

Kalit so’zlar: *Degradatsiya, cho’l, yarim – cho’l, yaylov, o’rmonzorlar.*

Аннотация: *В Бухарской области реализуются комплексные меры, направленные на повышение плодородия деградированных пастбищных почв, сохранение и восстановление экологической устойчивости фауны и флоры растительного мира естественных пастбищ, а также повышение эффективности использования пастбищ.*

Ключевые слова: *Деградация, пустыня, полупустыня, пастбище, лесные угодья.*

Abstract: *In the Bukhara region, comprehensive measures are being implemented to increase the fertility of degraded pasture soils, preserve and restore the ecological stability of the fauna and flora of the plant world of natural pastures, as well as increase the efficiency of pasture use.*

Key words: *Degradation, desert, semi-desert, pasture, forest land.*


Joriy yilning 6 oktabrda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan “O‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 17.12.2020 yildagi «Qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida»gi 791-son qarori, 23.02.2021 yildagi «Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 92-son qarorlari qabul qilingan. Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda sug‘oriladigan yerlardagi 22,1 ming gektar va cho‘l hududlardagi 55,7 ming

gektar (jami 77,8 ming gektar) yerlarni qayta foydalanishga kiritish, mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga qaror qilindi:

Suv xo'jaligi vazirligi hamda uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarga ajratilgan budget mablag'laridan 300 mlrd so'm mablag' Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan sug'oriladigan maydonlar va cho'l hududlardagi yerlarni qayta foydalanishga kiritish maqsadida amalga oshiriladigan ishlarga yo'naltiriladi.

2021-2022 yillarda Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan sug'oriladigan maydonlar va cho'l hududlardagi yerlarni qayta foydalanishga kiritish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangan. Respublikamizda keyingi yillarda degradatsiyaga uchragan yaylovlar tuproqlari unumdorligini oshirish, tabiiy yaylovlar o'simlik dunyosi fauna va florasini saqlash va ekologik barqarorligini tiklash hamda yaylovlardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yaylovlarning agroekologik holatini yaxshilash, antropogen, texnogen ta'sir darajasini kamaytirish shuningdek, ozuqabob o'simliklarning mahsuldor agrofytosenozlarini yaratish hamda tanazzulga uchragan cho'l va yarim - cho'l yaylov hududlarning biotsenozini sog'lomlashtirish dolzarb bo'lib hisoblanadi.



Mamlakatimizda 20,2 million gektar yer qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanilmoqda. Uning 11 million gektari yaylovlarni tashkil etadi. Samarqand Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining ma'lumotiga ko'ra, ushbu yaylovlarni 42 foizi degradatsiyaga uchragan. Yaylovlardan tartibsiz foydalanishni oldini olish maqsadida 2019 yil 2 aprelda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan "Yaylovlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Bugungi kunda ishlab chiqarishni jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, aholi sonini o'sib borishi, iqlimni o'zgarishi yer yuzida cho'llanish jarayonlarini tezlashtirdi. Har yili yer yuzi bo'yicha 13 million gektar o'rmon maydonlari yo'qotilmoqda. Yerlarni qurg'oqchil hududlarda doimiy degradatsiya holatlari kuzatilishi natijasida 3,6 milliard gektar yerlar cho'llangan hududlarga aylandi. Yer yuzida 6 milliard kishining hayoti bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liq, shu bilan birga, 52 foiz qishloq xo'jaligi yerlari turli darajada degradatsiyaga uchragan va butun yer yuzi buyicha degradatsiyaga uchragan yerlar 1,5 milliard kishini hayotiga xavf tug'dirmoqda.

Yerlarni degradatsiyaga uchrashi, cho'llangan hududlarni ko'payib borishi bizni respublikamizda ham kuzatilmoqda. Xususan, Orol dengizining qurishi natijasida 6 million gektar maydonda yangi Orol qum cho'li paydo bo'ldi. Tog'li hududlarda ilgari o'rmonzorlar dengiz sathidan 700-800 metr balandlikda bo'lar edi. Endilikda ular 900-1000 metr va undan balandroqdan boshlanmoqda.

Bundan tashqari, keyingi yillarda respublikamizda ekologik muhit buzilib, tez-tez kuchli shamol va qum bo'ronlari kuzatilmoqda. Jumladan, shu yilning 14 iyun kuni Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida va bir qator tumanlarida kuchli shamol esib, qum bo'ronlari kuzatildi. Buning natijasida bir necha ko'pqavatli uylarning tomi uchib ketdi, bozorlardagi rastalar buzildi. Xuddi shunday holat 2018 yil 26-27 may kunlari ham yuz bergan edi. Bunda kuchli shamol kun bo'yi davom etib, Orol dengizining qurigan tubidagi qum va tuz zarrachalarini havoga ko'tarib, barcha hududlarga tuz yog'ildi. O'sha paytda Nukus shahridagi havo tarkibida chang miqdori me'yordan 5,9 barobar ko'payganligi aniqlangan edi.

Joriy yilning 27 aprel kuni Buxoro viloyatida, ayniqsa, Olot va Qorako'l tumanlarida janubiy-g'arbiy yo'nalishda shamolning tezligi sekundiga 15-25 metr tezlikda bo'lib, ijtimoiy soha ob'ektlariga, aholi yashash xonadonlariga va daraxtlarning ag'darilishi natijasida avtotransport vositalariga jiddiy zarar yetkazdi.

Surxondaryo viloyatida «afg'on shamoli» deb ataluvchi issiq garmsel shamoli deyarli har yili janub tomondan esib, bizning respublikamizga kirib, noqulay ob-havo sharoitini yuzaga keltirmoqda. Bunda shamol ko'p miqdorda qum uyumlarini ko'chalarga, aholi yashaydigan hududlarga olib kiradi. Bunday paytlarda aholi uylarida eshik va derazalarni yopib, qum bo'ronidan panoh topadi. Shuni ta'kidlash kerakki, Orolbo'yi regionidagi viloyatlar, shuningdek, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida yashovchi mahalliy aholi bunday kuchli shamol va qum, chang bo'ronlaridan ruhiy, moddiy, ma'naviy, iqtisodiy va ekologik jihatdan aziyat chekmoqda.

O'rmon barpo qilish orqali ko'chma qumlarni mustahkamlash, yerning ustki qismida shamol tezligini kamaytirish, qum, chang bo'ronlarini to'xtatish mumkin. 1 tup o'rta yoshli saksovul o'z ildizi bilan 10 tonna qumni mustahkamlaydi va ko'chishiga yo'l bermaydi. 1 gektar saksovul va cherkezdan iborat o'rmonzor yil davomida 1135 kg. karbonat angidrid gazini yutib 835 kg. kislorod ajratadi. Bu esa havo tarkibini yaxshilaydi, atrof-muhitni ifloslanishiga chek qo'yadi.

Insonning salomatligi ko'p jihatdan atrof-muhit ekologik holatiga bog'liq. Ekologik holat qancha yaxshi bo'lsa, inson sog'lig'i ham shuncha yaxshi bo'ladi. Ko'p hududlarda cho'llar saksovul va boshqa butalarsiz qolgan, qum esa tobora shahar va tuman markazlarigacha kirib bormoqda. Hozirgi kunda ko'pgina shahar va tumanlarning istalgan hududida qum uyumlarini topish mumkin. Bunday holatlar yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Davlatimiz tomonidan ayni shu muammolar yechimini izlash va mavjud vaziyatni yumshatish bo'yicha qator choralar ko'rilmoqda. Prezidentimizning 2019 yil 23

avgustdagi qarori asosida ularning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun respublikamizda o'rmon xo'jaliklari tomonidan 2020 yildan boshlab eroziya va cho'llanishga qarshi 500 ming gektardan ortiq maydonda o'rmonzorlar barpo etish belgilangan. Bizning respublikamiz kam o'rmonli mintaqalarga kiradi. Jami o'rmon fondi yer maydoni 12 million gektardan iborat bo'lib, shuning atigi 3,2 million gektari o'rmon bilan qoplangan yerlardir.

Respublikamizning o'rmon bilan qoplanganlik darajasi atigi 7,2 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Rossiyada 55 foizni, Boltiqbo'yi davlatlari, Gruziya, Moldovada 34-38 foizdir. Agar respublika umumiy yer maydonining 80 foizi cho'l va qurg'oqchil hududlardan iborat ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu juda kichik hajmdir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hukumatimizning Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar barpo etishni ko'paytirish maqsadlari uchun 2019-2020 yillarda bir yo'la "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan 100 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratilib, qo'llab-quvvatlashi hisobiga 1 million 200 ming gektar maydonda urug'dan va ko'chatdan o'rmon barpo etish ishlari amalga oshirildi va ular yaqin 4-5 yil ichida quyuc o'rmonzorlarga aylanib, zaharli qum, chang va tuzlarni atmosferaga ko'tarilishini butunlay to'xtatadi.

Bugungi kunda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tasarrufidagi Samarqand Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti cho'l-yaylov ozuqabop o'simliklarini birlamchi urug'larini 263 gektar maydonda yetishtirmoqda. Bundan tashqari, Buxoro cho'l ozuqabop ekinlari urug'chilik markazi tomonidan 2020 yilda Navoiy viloyatida 1000 gektar, Qashqadaryoda 200 gektar, Qoraqalpog'iston Respublikasida 200 gektar va Jizzaxda 100 gektar maydonda cho'l va yaylov ekinlarni urug'larini tayyorlash rejalashtirilgan. Tayyorlangan cho'l ozuqabop ekinlarni urug'laridan degradatsiyaga uchragan yerlarga ekish uchun foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan "O'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".

2. Vazirlar Mahkamasining 17.12.2020 yildagi «Qishloq xo'jaligi yerlarini konservatsiya qilish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida»gi 791-son qarori.

3. Vazirlar Mahkamasining 23.02.2021 yildagi «Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 92-son qarori.

4. Nabiyeva G.M., Avazov S.Cho'l yaylovlari tuproqlari unumdorligiga iqlim o'zgarining ta'siri. Toshkent -2012yil. B. 79-82.

5. Maxmudov M.M., Xamidov A.A., Xalilov X.R., Sindorov Sh.Q., Maxmudova G.M., Ortiqova L.S., Gafurova L.A., Nabieva G.M., Sharipov

O.Sh. Cho'l va adir mintaqalari sharoitida mahsuldor yaylovlar barpo etish texnologiyalari. fermerlar uchun tavsiyalar, - Toshkent - 2014. 24 b.

6. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». Вестник Хорезмской Академии Мамуна, 17-20.

7. Худойбердиев, Ф. Ш., Шарипова, Ф. К., Бобожонов, С. У., & Мухаматов, К. М. (2014). РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩНЫХ ЗЕМЕЛЬ. The Way of Science, 69.

8. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). Innovative approach to rational use of pastures and increasing productivity. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 76-78).

9. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER SYSTEM TODAY. International Engineering Journal For Research & Development, 6, 3-3.

10. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. Землеустройство, кадастр и мониторинг земель, (10), 24-27.

11. Xudoyberdiyev, F. S. (2020). TAKRORIY EKIN-QO'SHIMCHA DAROMAD. Студенческий вестник, (24-6), 47-48.

12. Sh, F. (2019). Khudoyberdiyev. Development of methods of pasture improvement, creation of new pastures and effective use of pastures. Bulletin of the Khorezm Academy of Sciences, 2-15.

13. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, June). THE IMPORTANCE OF PASTURE LANDS IN THE DEVELOPMENT OF THE LIVESTOCK SECTOR IN UZBEKISTAN. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 164-166).

14. Худойбердиев Ф. Ш. Меры предотвращения деградации пастбищных земель //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 331-333.

15. Xudoyberdiyev, F. S. (2020). BUXORO VILOYATIDA YAYLOVLARDAN FOYDALANISHNING BUGUNGI HOLATI. Студенческий вестник, (24-6), 45-46.

16. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Яйловларни яхшилаш, янги яйлов барпо этиш ва яйловлардан самарали фойдаланиш усулларини ишлаб чиқиш" мавзусидаги илмий мақола. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 17-20.

17. Khudoyberdiyev, F. S., Sharipova, F. K., Bobozhonov, S. U., & Mukhamadov, K. M. (2014). Development of effective methods of pasture land use. The Way of Science, 70.

18. Shamshodovich, K. F., Suxrobjon, A., Qamoriddin, M., & Saidjon, B. (2021). Protection of Land Resources and Wise Use. Eurasian Journal of Academic Research, 1(04).

19. Shamshodovich, K. F., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). GPS SPUTNIK SYSTEM. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 33–34. Retrieved from

20. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). ACHIEVING EFFECTIVE RESULTS THROUGH PASTURE MANAGEMENT. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 72-75).